MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI ESTD 1998

MAKTABGACHA VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM TIZIMIDA BOLALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA RUHIY SALOMATLIGINI TA’MINLASHDA INNOVATSION XALQARO TAJRIBA VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLALAR TO‘PLAMI

TOSHKENT 2026

MAQOLALAR TO‘PLAMI

“Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida bolalarning psixologik farovonligi va ruhiy salomatligini ta’minlashda innovatsion xalqaro tajriba va barqaror rivojlanish strategiyalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya

«Обеспечение психологического благополучия и психического здоровья детей в системе дошкольного и общего среднего образования: инновационный международный опыт и стратегии устойчивого развития» — тема Республиканской научно-практической конференции.

“Ensuring Children’s Psychological Well-Being and Mental Health in the Preschool and General Secondary Education System: Innovative International Experience and Sustainable Development Strategies” — the theme of the Republican Scientific and Practical Conference.

“Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida bolalarning psixologik farovonligi va ruhiy salomatligini ta’minlashda innovatsion xalqaro tajriba va barqaror rivojlanish strategiyalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TOSHKENT – 2026

“Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida bolalarning psixologik farovonligi va ruhiy salomatligini ta’minlashda innovatsion xalqaro tajriba va barqaror rivojlanish strategiyalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent 2026 – yil 26 – avgust 726 bet

Tahrir hay’at raisi:

L.R.Gaynutdinova – O‘quvchilarni kasb – hunarga yo‘naltirish va psixologik – pedagogika reapublika taxshis markazi direktori.

Tahrir hay’ati:

Psixologiya fanlari nomzodi X.E. Usmanova

Maqolalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma, statistik ma’lumotlar, ilmiy – nazariy fikrlar va ma’lumotlar aniqligi hamda stilistikasiga mualliflar javobgardir.

Mirzatillayev Umid Izzatillayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: mirzatillaevumid7@gmail.com

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISH VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada jinoyatlarning profilaktikasi, jinoyatchilikning oldini olish,jinoyatchiligining oldini olishga mas’ul bo‘lgan davlat organlarining faoliyati,muayyan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinganligi,voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish siyosati, oldini olish va profilaktika tushunchalari, oldini olish va profilaktikaning turlari, Qozog‘iston, Rossiya va Belarus davlatlarining qonunchiligida huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qorovsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi tizimi,huquqbuzarliklar profilaktikasining chora-tadbirlari, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.
Kalit so‘zlar: voyaga yetmagan, oldini olish, profilaktika, oldini olish turlari, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish.

Мирзатиллаев Умид Иззатиллаевич,
Главный научный сотрудник Криминологического исследовательского института Республики Узбекистан, доктор философии (PhD) по юридическим наукам
E-mail: mirzatillaevumid7@gmail.com

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ И ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы профилактики преступлений, предупреждения преступности, а также деятельность государственных органов, ответственных за предупреждение преступности, и ее регулирование соответствующими нормативно-правовыми актами. Проанализированы политика предупреждения преступности среди несовершеннолетних, понятия предупреждения и профилактики, а также их виды. Кроме того, рассматриваются виды профилактики правонарушений в законодательстве Казахстана, России и Беларуси, вопросы безнадзорности и беспризорности несовершеннолетних, новая система профилактики правонарушений и борьбы с преступностью, а также меры профилактики правонарушений. В статье также

представлены мнения и предложения по вопросам предупреждения преступности среди несовершеннолетних.
Ключевые слова: несовершеннолетний, предупреждение, профилактика, виды предупреждения, предупреждение преступности среди несовершеннолетних.

Mirzatillaev Umid Izzatillaevich,
Chief Researcher of the Criminological Research Institute of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law
E-mail: mirzatillaevumid7@gmail.com

LEGAL FOUNDATIONS FOR THE PREVENTION OF JUVENILE CRIME AND THE PREVENTION

Abstract. The article deals with the issues of crime prevention, crime prevention, activities of state bodies responsible for crime prevention regulated by certain legal acts, policies for the prevention and prevention of juvenile crime, the concept of prevention and prevention of offenses, types of prevention and prevention of offenses in the legislation of Kazakhstan, Russia and Belarus, neglect and homelessness of minors, opinions were expressed on the new system of crime prevention and crime control, measures of crime prevention, prevention of juvenile crimes.
Keywords: minors, prevention, types of prevention, prevention of juvenile delinquency.
Bugungi kunda jamiyatda jinoyatchilikning oldini olish, ayniqsa voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning profilaktikasini samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar nafaqat jamiyat xavfsizligiga, balki kelajak avlod tarbiyasi va ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish davlat siyosatida muhim yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.
So‘nggi yillarda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha davlat organlari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni bartaraf etishga xizmat qiladi.
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarni jazolashdan afzaldir, chunki jinoyat natijasida fuqarolarga, davlat va jamiyatga ham iqtisodiy, ham ma’naviy, ham jismoniy zarar yetkaziladi. Respublikamizda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida huquqbuzarliklar profilaktikasida jamoatchilikning ishtirokini kengaytirish, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish tizimi yaratildi. Tadqiqotchilar jinoyatchini aniqlash, uni sodir etgan jinoyati uchun jazo bergandan ko‘ra, jinoyatchilikning oldini olish muhim ekanligini qayd etadilar. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, jinoyatlarning profilaktikasi – jinoyatchilikka qarshi kurash

sohasida eng muhim va samarali, shuning bilan birga insonparvar yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. «Jinoyatchilikning oldini olish» tushunchasi bir qator ijtimoiy-huquqiy fanlarda o‘ziga xos mazmun va mohiyat asosida talqin etiladi. Ammo «Kriminologiya» fanida ushbu tushunchaga alohida yondashilishi bizga yaxshi ma’lum. Chunki jinoyatchilikning oldini olish va shu maqsadda tadqiqotlar o‘tkazish «Kriminologiya» fanining predmeti doirasiga kiruvchi asosiy muammolardan biri hisoblanadi[1]. Jinoyatchilikning oldini olish ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bilan uzviy bog‘liqligini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ya’ni jamiyatda shaxsning boshqa shaxs yoki davlat bilan o‘rtasida yuzaga keluvchi barcha qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, o‘z mohiyatiga ko‘ra, jinoyatchilikning oldini olishdagi eng muhim tadbirdir. Shuning uchun ham har bir davlat yoki jamiyatda, birinchi galda, jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi barcha salbiy harakatlarga qarshi kurash olib borishga mas’ul bo‘lgan davlat organlarining faoliyat yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash katta ahamiyatga ega[2]. Ch.Bekkariyaning «Jinoyat va jazo» nomli asarida «jinoyatni oldini olish-rivojlangan jamiyatda haqiqiy yurisprudensiyadir»[3] deyilganini ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga mas’ul bo‘lgan davlat organlarining faoliyati muayyan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi hamda amaliyotga tatbiq etiladi. Xususan, I.Ismailov «voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi – davlat hokimiyati organlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, unda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalar, ularning jinoiy faoliyatga jalb etuvchi shaxslarni aniqlash, ular sodir etayotgan jinoyatlarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, shuningdek ular yashayotgan va ta’lim olayotgan joylarda ijtimoiy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan tarbiya, ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiyhuquqiy nazorat vositalari orqali profilaktik ta’sir choralarini qo‘llashdan iborat davlat siyosati darajasida amalga oshiriladigan alohida faoliyat», shuningdek «voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi – voyaga yetmaganlar tomonidan qonun bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishini taqozo etuvchi sabab va sharoitlarni keltirib chiqaruvchi, oziqlantiruvchi, jamiyatda ijtimoiy hodisa sifatida uning bo‘lishini taqozo etuvchi hodisa, voqea, jarayonlarni kamaytirish, zararsizlantirish, cheklash va bartaraf etish bo‘yicha davlat siyosatini belgilash va uni amalga oshirish hamda takomillashtirishga qaratilgan kompleks ijtimoiy-huquqiy jarayon»«[4] deb hisoblaydi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning turlarini ko‘rib chiqish uchun biz dastlab oldini olish va profilaktika so‘zlarining ma’nosini anglab olsak. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «oldini olmoq» tushunchasiga nisbatan: «xavf xatarning yuz berishidan ilgari chorasini ko‘rmoq; yomon oqibatning yuz berishiga yo‘l qo‘ymaslik»«[5] shuningdek profilaktikaga: «umuman, biror-bir hodisaning oldini olish uchun ko‘riladigan choralar»«[6] degan ta’riflar berilgan bo‘lib ulardan xulosa qilib aytish mumkinki, «oldini olish» tushunchasi «profilaktika» tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u

profilaktik chora-tadbirlarini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Demak voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga profilaktik chora-tadbirlarini qo‘llash orqali erishiladi. Shunday ekan, profilaktik chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi, ular samaradorlik mexanizmining yaratilishi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga xizmat qiladi. I.Ismailov, Q.R.Abdurasulovalar «jinoyatlarning profilaktikasi deganda, jinoyatlar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, tarbiyaviy-profilaktik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, tibbiy, psixologik, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarining tizimi tushuniladi» hamda «milliy qonunchilik normalarining tahliliga tayanib aytish mumkinki, jinoyatlar profilaktikasi quyidagi turlardan iborat: jinoyatlarning 1) umumiy profilaktikasi; 2) maxsus profilaktikasi; 3) yakka tartibdagi profilaktikasi; 4) viktimologik profilaktikasi»«[7] deb takidlaydi. Shu o‘rinda, N.T.Ismoilov ham voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olish muammolarini o‘rganib voyaga yetmaganlar jinoyatlarini oldini olishni umumiy va yakka profilaktikaga bo‘lish kerak»[8] degan fikrlarini bildirganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi olimlardan farqli ravishda, S.B.Xo‘jaqulov «Huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sir ko‘rsatish ob’ektlari (birinchi guruh, huquqbuzarlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil shaxslar, ikkinchi guruh, huquqbuzarlikdan jabrlangan yoki jabrlanish ehtimoli mavjud bo‘lgan shaxslar)ga ko‘ra kriminologik va viktimologik profilaktika turlariga ajratgan»[9]. Biroq voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning turlari shu sohaning mutaxassis olimlari, amaliyot xodimlari tomonidan hozirgi kunga qadar yagona to‘xtamga kelinmagan. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunda «voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi— voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi»«deb ta’riflab voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining faqatgina yakka tartibdagi profilaktikasining turini ajratib ko‘rsatgan. Shuningdek voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda milliy qonunchiligimizning rivojlanishi natijasida, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunda «huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi» deb ta’riflab huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi kabi turlarga ajratgan. Taqqoslash uchun: Qozog‘iston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi (29.04.2010y.) qonunida «huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquqbuzarliklar profilaktikasi

sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish yo‘li bilan huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlashga yo‘naltirilgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy chora-tadbirlar kompleksi»(1-m.)» deb ta’riflanib, huquqbuzarliklarning umumiy, yakka tartibdagi (individual) va maxsus profilaktik choralarga ajratgan; Rossiya Federatsiyasining «Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining asoslari to‘g‘risida»gi (23.06.2016y.) qonunida «huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, shuningdek g‘ayriijtimoiy xulq-atvor yoki huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaxslarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, informatsion va boshqa xarakterdagi chora-tadbirlar majmui»
(2-m.)»; Belarus Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatning asoslari to‘g‘risida»gi (4.01.2014y.) qonunida «huquqbuzarliklar profilaktikasi – «Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatning asoslari to‘g‘risida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, huquqbuzarliklar profilaktikasi sub’ektlarining huquqbuzarliklarning umumiy va (yoki) yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarini qo‘llash bo‘yicha faoliyati» (1-m.)» deb ta’riflanib yuqoridagi Qozog‘iston Respublikasining huquqbuzarliklar profilaktikasining turlaridan farqli ravishda huquqbuzarliklarning umumiy va yakka tartibdagi (individual) turlariga ajratilganligini[10] ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda takidlash joizki voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklar profilaktikasi sub’ektlari voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligini oldini olish bilan bog‘liq profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligi voyaga yetmaganlarda g‘ayriijtimoiy hulq-atvorning shakllanishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.
Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning turlarini O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi (14.05.2014 y.) hamda «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi (29.09.2010 y.) qonunlari doirasida, bu sohaning olimlarining izlanishlarini hamda amaliyot hodimlarining jinoyatchilikni oldini olishda qo‘llab kelayotgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi kabi turlariga ajratib ularni tadqiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy sherikchilikda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga oid tizimli kompleks choratadbirlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi». Kriminologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, oldini olish choralarini yaxshilash bilan har o‘nta jinoyatning yettitasini oldini olishga erishish mumkin». Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasining har bir turi o‘z maqsadi, vazifasi, xususiyatlari va afzalliklari asosida ishlab chiqilgan profilaktik

chora-tadbirlar tizimiga ega. Mazkur chora-tadbirlar voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini kafolatlaydi. Ushbu chora-tadbirlar ma’lum bir normativ-huquqiy hujjatlarda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga mas’ul davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasida taqsimlanishi va hamkorlikni belgilashi muhim hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy sherikchilikda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga oid tizimli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda profilaktik choratadbirlarning samaradorligi ularning ko‘p qirrali ekanligi bilan belgilanadi. Bu chora-tadbirlar hayotning hamma jabhalarini qamrab olishi, fuqarolarga ijtimoiy-salbiy ta’sir qiladigan omillarni, jinoyatning barcha sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni bartaraf etishga qaratilishi lozim. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish uchun ishlab chiqilgan tadbirlar huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa davlat organlari bilan birga hamkorlikda olib borilishi kerak.

Ikkinchidan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish birinchi navbatda oiladagi muhit va ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Nima halolu nima harom ekanligini farzandlarimizga bobo va momolar, ota-ona va ustozlar o‘giti bilan singdiriladi. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur», degan so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuning uchun, maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablarda tarbiyaviy ishlarga katta e’tibor berishi talab etiladi.

Uchinchidan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida voyaga yetmaganning o‘ziga xos salbiy yoki ijobiy xislatlari alohida o‘rin tutadi. Voyaga yetmaganning o‘ziga xos ijobiy xislatlarini yanada rivojlantirilishi va bu boradagi ishlarni voyaga yetmaganning oila a’zolari, ya’ni ota-onasi, buvi-buvasi, aka va opasi, shuningdek ayrim xolatlarda boshqa qarindosh-urug‘lari bilan kelishib, tizimli ravishda amalga oshirilishi orqali voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kamayishiga erishish mumkin bo‘ladi.

To‘rtinchidan, voyaga yetmaganlarni ma’naviy, axloqiy va huquqiy tarbiyasini yaxshilash, ularni qonunlarga rioya etish va unga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash jinoyatchiligining oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma’naviyatga ega bo‘lgan inson hech qachon yomon ish qilmaydi, nega deganda insonni inson qiladigan, to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan, uning ongi va ruhiyatini tozalaydigan ulug‘ narsa bu “ma’naviyat”dir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kriminologiya: Darslik / Z. S. Zaripov, A. S. Yakubov, G. A. Avanesovva boshq.; prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston RespublikasiIIV Akademiyasi, 2008. – 420 b. B. 120,123.
2. Криминология: Учебник. Под ред.акад. В.Н.Кудрявцева, проф. В.Е.Эминова. - М., 1997. - С. 103.
3. Исмаилов И. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг криминологик тавсифи ва профилактикаси // Криминология. Махсус қисм: Дарслик / Муаллифлар жамоаси. — Т., 2015. — Б. 15.
3. Ismailov I. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi // Kriminologiya. Maxsus qism: Darslik / Mualliflar jamoasi. — T., 2015. — B. 15.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. III. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 109,316.
5. I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / Mas’ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 252 b. B 174-175.
6. Ismoilov N.T. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olish muammolari. Yurid. fan. nomz. Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. - T., 2006. B. 21.
7. Xo‘jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish: Monografiya / Mas’ul muharrir yu.f.d., - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. - 186 b. B. 40.
8. Сборник законов о профилактике правонарушений стран Содружества Независимых Государств / Сост.: А.С. Турсунов, С.Б. Хужакулов. – Т., 2018. – С. 37, 55,74.
9. Mualliflar jamoasi. Kriminologiya. Maxsus qism: Darslik / I.Ismailov, Q.R.Abdurasulova va bosh. - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. - 744 b. B 15.
10. Кузнецова Н.Ф. Проблемы криминологической детерминации. – М., 1984. – С.145. 12. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik, 2-nashri, 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikoyalar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari // Tahrir hay’ati: N.Karimov va boshq.; To‘plovchi: B.Qosimov; Izohlar va lug‘atni O.To‘laboev tuzgan /. – T.: «Ma’naviyat», 2006. – B-37.